O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA’LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali

2026-YIL 4-SON

www.journal.namspi.uz

Bosh muharrir: *Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov*
Mas'ul muharrir: *Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov*
Mas'ul muharrir o'rinbosari: *Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedogogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev*

T A H R I R H A Y ' A T I

Aniq va tabiiy fanlar: *k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.*
Texnika fanlari: *t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.*
Ijtimoiy-gumanitar fanlar: *s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d, prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.*
Pedagogika fanlari: *p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d., dost. M.Asqarova, PhD, dots. M.Asranboyeva.*
Filologiya fanlari: *fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD.,dots. P.Lutfullayev, PhD., dots. M.Yakubbayev.*

Texnik muharrir: R.Tursunov
Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.
Pochta indeksi: 160136, ***Faks:*** (0369) 227-27-21,
Email: Info@namspi.uz
Nashr sanasi: 30.08.2026

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi ***Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi*** *asosida chop etiladi. Jurnal* ***Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha*** *falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan. UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.*

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI 2026

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIROMONOVICH MIRZIYOYEVNING SAN'AT VA MADANIYAT SOHASIDAGI ASOSIY FARMONOMALARI VA FARMONOMALARINING TA'RIFI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan san'at va madaniyat sohasida qabul qilingan asosiy farmon va qarorlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda milliy madaniy merosni saqlash va targ'ib qilish, san'at muassasalarini rivojlantirish, ijodiy sohalarni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, xalqaro madaniy aloqalarni kengaytirish va yoshlarning san'at va madaniyat bilan aloqalarini oshirishga qaratilgan davlat siyosati bilan bog'liq masalalar o'rganiladi. Maqolada ushbu farmon va qarorlarning amaliy ahamiyati, ularning jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayotiga ta'siri va amalga oshirilgan islohotlar natijalari ilmiy jihatdan ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *san'at, madaniyat, qaror, farmon, milliy meros, islohotlar, davlat siyosati, Mirziyoyev, ijodkorlik, madaniy rivojlanish.*

INTRODUCTION

"Culture and art are the soul of a nation,

a bridge between its Past and future"

President of the Republic of Uzbekistan

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev

The cultural image of any state is a harmonious expression of its historical experience, national values, and modern development trends. Uzbekistan is a state that has made a huge contribution to world civilization with its rich cultural heritage, ancient cities, unique architectural monuments, and unique artistic traditions. Therefore, the issue of preserving, developing, and passing on this heritage to future generations has always been relevant.

With the election of Shavkat Miromonovich Mirziyoyev as President of the Republic of Uzbekistan in 2016, along with reforms in socio-economic spheres, a radical renewal began in the field of art and culture in the country. The President's strategic approach in this area is that culture is an important factor not only in preserving the past, but also in building the future of the nation, enriching the spiritual world of citizens, and enhancing the prestige of Uzbekistan in the international arena.

UDK: 373.3.015.31:17.022.1

"YOSH KITOBXON" TO'GARAGIDA XALQ ERTAKLARI ASOSIDA AXLOQIY TANLOVNI MUHOKAMA QILISH METODIKASI

Turaxodjayeva Zulxumor Yusufjonovna
Namangan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
Muhammadsharif So'fizoda nomidagi Namangan viloyati bolalar kutubxonasi direktori
E-mail: Zulhumor.turaxodjayeva@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolaning maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan "Yosh kitobxon" to'garagida xalq ertaklari asosida axloqiy tanlovni muhokama qilish metodikasini ishlab chiqishdan iborat. Ishda bolalar adabiyotining tarbiyaviy imkoniyatlariga oid tadqiqotlar qiyosiy tahlil qilindi va axloqiy tarbiyaning integrativ modeli asosida to'garak mashg'uloti loyihalashtirildi. Modelning maqsadli, mazmuniy, tashxisiy va natijaviy-korreksion bloklari bitta mashg'ulot doirasida o'zaro bog'landi. Metodik natija sifatida ertak lavhasini o'qish, qahramonning xatti-harakati va kechinmasini izohlash, muqobil qarorlarni solishtirish, ularni rolli o'yinda namoyish qilish hamda o'quvchining o'z tanlovi haqida fikr yuritishiga imkon beradigan to'rt bosqichli mashg'ulot tartibi taklif etildi. "Zumrad va Qimmat" ertagi asosida namunaviy ishlanma va unga mazmunan yaqin yangi hayotiy vaziyat berildi. O'quvchining qarorini asoslashini, boshqa kishining holatini tushuntirishini va guruhdagi xatti-harakatini alohida qayd etish uchun uch mezonli kuzatuv jadvali tuzildi. Undagi reproduktiv, izlanishli va kreativ darajalar o'quvchi qanday pedagogik ko'makka ehtiyoj sezishini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Taklif etilgan ishlanma boshlang'ich sinf o'qituvchilari va to'garak rahbarlariga o'qilgan matn yuzasidan savollar tuzish, bolalarning javoblarini tahlil qilish va keyingi mashg'ulot topshirig'ini tanlashda foydalanish uchun mo'ljallangan.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, axloqiy tarbiya, axloqiy tanlov, sinfdan tashqari faoliyat, "Yosh kitobxon", xalq ertagi, rolli o'yin, pedagogik kuzatuv, refleksiya.*

МЕТОДИКА ОБСУЖДЕНИЯ НРАВСТВЕННОГО ВЫБОРА НА МАТЕРИАЛЕ НАРОДНЫХ СКАЗОК В КРУЖКЕ «ЮНЫЙ ЧИТАТЕЛЬ»

Аннотация: *Цель статьи состоит в разработке методики обсуждения нравственного выбора с учащимися начальных классов на материале народных сказок в кружке «Юный читатель». Проведён сравнительный анализ исследований воспитательного потенциала детской литературы и спроектировано занятие на основе интегративной модели нравственного воспитания. В рамках одного занятия связаны целевой, содержательный, диагностический и результативно-коррекционный блоки модели. В качестве методического результата предложена последовательность из четырёх этапов, включающая чтение фрагмента сказки, обсуждение*

поступков и переживаний персонажей, сравнение возможных решений, их разыгрывание и осмысление собственного выбора. Представлена разработка занятия на основе узбекской народной сказки «Зумрад и Киммат» и предложена близкая по содержанию ситуация из школьной жизни. Для раздельной фиксации того, как учащийся обосновывает решение, объясняет состояние другого человека и действует в группе, составлена таблица наблюдения с тремя критериями. Репродуктивный, поисковый и творческий уровни помогают определить, какая педагогическая поддержка необходима ребёнку при выполнении задания. Разработка предназначена для учителей начальных классов и руководителей кружков. Она позволяет планировать вопросы к тексту, анализировать ответы учащихся и подбирать задание для следующего занятия с учётом наблюдений.

Ключевые слова: *начальное образование, нравственное воспитание, нравственный выбор, внеурочная деятельность, кружок «Юный читатель», народная сказка, ролевая игра, педагогическое наблюдение, рефлексия.*

A METHOD FOR DISCUSSING MORAL CHOICES THROUGH FOLK TALES IN THE YOUNG READERS CLUB

Abstract: *This article develops a method for discussing moral choices with primary school pupils through folk tales in the Young Readers Club. Studies of the educational potential of children's literature were compared, and a club session was designed using an integrative model of moral education. The session links the model's goal-setting, content, assessment, and follow-up components. The main methodological outcome is a four-stage session that combines reading a selected passage, discussing the characters' actions and feelings, comparing possible decisions, acting out alternative responses, and reflecting on a personal choice. A sample session based on the Uzbek folk tale Zumrad and Qimmat is paired with a new scenario drawn from everyday school life. A three-criterion observation rubric helps teachers record separately how pupils justify a decision, explain another person's feelings, and act within a group. The reproductive, exploratory, and creative levels indicate the type of support a pupil may need when completing a task. The method is intended for primary school teachers and club leaders who wish to prepare questions about a text, interpret pupils' responses, and use their observations to plan the next session.*

Keywords: *primary education, moral education, moral choice, extracurricular activities, Young Readers Club, folk tale, role-play, teacher observation, reflection.*

KIRISH

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi ertak voqealarini to‘g‘ri bayon qilib, qahramonning nima sababdan shunday yo‘l tutganini yoki uning qarori boshqalarga qanday ta’sir qilganini izohlashda qiynalishi mumkin. Axloqiy tarbiya uchun shu tafovut muhim. O‘quvchi voqeadagi muammoni payqashi, qahramon uchun mavjud yo‘llarni

ko'rishi va o'z tanlovini aniq sabab bilan tushuntirishi kerak. "Yosh kitobxon" to'garagida qisqa lavhani qayta o'qish, turli talqinlarni eshitish va voqeani rollarda ijro etish shu amallarni bir mashg'ulotda birlashtirish imkonini beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy tarbiyasiga bag'ishlangan tadqiqot doirasida "O'ttiz to'rt hafta, o'ttiz to'rt kitob" loyihasi uchun "Yosh kitobxon" to'garagi dasturi ishlab chiqilgan [1]. Mazkur maqolada shu dastur doirasida qo'llash uchun bitta mashg'ulotning metodik tuzilishi yoritiladi. Maqsad ertakdagi axloqiy tanlovni muhokama qilish tartibini ishlab chiqish va uni pedagogik kuzatuv bilan bog'lashdir. Buning uchun matn va lavha tanlash talablari belgilandi, muhokama hamda sahnalashtirish topshiriqlari tuzildi, o'quvchi javobi va xatti-harakatini qayd etish mezonlari aniqlashtirildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

D. Narvaez axloqiy hikoyalarni tushunishda bolalarning o'qish malakasi, avvalgi bilimi va axloqiy mulohaza yuritish tajribasi muhimligini ko'rsatadi. Shu bois o'qituvchi bolalar voqeaga qanday ma'no berganini savol va suhbat orqali aniqlashi zarur [2]. L. Gasser va hammualliflar badiiy matn bilan ishlashda uch yo'nalishni ajratadi. Bular asarning axloqiy mazmunini anglash, qahramon nuqtayi nazarini tasavvur qilish va tengdoshlar bilan dalillarga tayangan holda bahslashishdir [3]. Taklif etilayotgan mashg'ulotda o'quvchi avval voqeani tushuntiradi, keyin qahramonning o'rniga o'zini qo'yib ko'radi va fikrini guruh bilan muhokama qiladi.

To'rtinchi sinfdagi adabiy suhbatlarni o'rgangan C. A. Chinn va hammualliflar hamkorlikda mulohaza yuritishga asoslangan muhokamada o'quvchilar faolroq ishtirok etgani va murakkabroq fikrlash amallarini ko'proq qo'llaganini qayd etgan [4]. Darsdan tashqari dasturlar bo'yicha meta-tahlilda mashg'ulotlarning izchil tuzilishi, faol ishtirok hamda o'rgatiladigan ko'nikmaning aniq belgilanishi ayrim ijtimoiy natijalar bilan bog'langan [5]. Ushbu xulosalar to'garak topshirig'ini rejalash uchun asos beradi.

O‘quvchining matn yuzasidan asosli fikr bildirishi va kundalik xulqidagi o‘zgarish esa turli ko‘rsatkichlar sifatida baholanadi.

I. R. Kumschick va hammualliflar ikkinchi va uchinchi sinf o‘quvchilari bilan o‘tkazilgan, bolalar adabiyotiga asoslangan darsdan tashqari dasturda hissiyotga doir lug‘at va emotsional bilimning ayrim ko‘rsatkichlari yaxshilanganini qayd etgan [6]. Axloqiy tarbiya shakllariga oid avvalgi ishda an’anaviy tarbiya vositalarini interfaol usullar bilan uyg‘unlashtirish nazariy jihatdan tahlil qilingan [7]. Mazkur maqolada ushbu g‘oya ertak muhokamasi, rolli o‘yin va mezonli kuzatuvni bitta mashg‘ulotga birlashtirish orqali amaliy mashg‘ulotga tatbiq etiladi.

Ish nazariy-metodik xarakterga ega. Qiyosiy tahlil orqali matnni anglash, qahramon nuqtayi nazarini tushunish va qarorni asoslashga oid yondashuvlar ajratildi. Pedagogik modellashtirishda avtoreferatdagi maqsadli, mazmuniy, tashxisiy va natijaviy-korreksion bloklar bitta to‘garak mashg‘ulotiga moslashtirildi [1]. Maqsadli blokda mashq qilinadigan axloqiy amal belgilanadi. Mazmuniy blokda unga mos lavha, savollar va rolli vaziyat tuziladi. Tashxisiy blokda o‘quvchining javobi va amali mezonlar asosida qayd etiladi. Natijaviy-korreksion blokda kuzatuvga qarab keyingi topshiriq moslashtiriladi.

Ertak lavhasini tanlashda uch talabga amal qilindi. Qahramonning xatti-harakati bolaga tushunarli bo‘lishi, bu harakatning boshqa kishiga ta’sirini muhokama qilish mumkin bo‘lishi va o‘quvchi voqea uchun boshqa yechim taklif qila olishi kerak. Masalan, “Zumrad va Qimmat” ertagida kampirning qizlarga munosabati, ularning yordamga javobi va uyini sog‘inishi haqida suhbat uyushtirish mumkin [8]. Lavha mazmunini tushunishga yordam berish uchun ovoz chiqarib o‘qish yoki voqea ketma-ketligini rasm bilan ifodalash ko‘zda tutiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mashg'ulot bosqichlari

Metodik ish natijasida to'garak mashg'ulotining to'rt bosqichli tuzilishi ishlab chiqildi (1-jadval). Mashg'ulotning asosiy savoli bitta bo'ladi. Qo'shimcha savollar esa bolani qahramonning tanlovini matnga tayangan holda izohlashga, oqibatini tushuntirishga yoki boshqa yo'lni taklif qilishga undaydi. Vaqt taqsimoti namunaviy bo'lib, matn murakkabligi va guruhning o'qish sur'atiga qarab moslashtiriladi.

1-jadval. "Yosh kitobxon" to'garagi mashg'ulotining bosqichlari

Bosqich	**Daq.**	**O'quvchining vazifasi**	**O'qituvchi kuzatadigan dalil**
Motivatsion	5	Rasm yoki ertak lavhasi asosida qahramon duch kelgan muammoni taxmin qiladi.	Muammoni o'z so'zi bilan aytadi.
Shakllantiruvchi	10	Lavhani o'qiydi yoki tinglaydi. Qahramonning xatti-harakati va kechinmasini izohlaydi.	Javobini matndagi voqea yoki belgi bilan asoslaydi.
Rivojlantiruvchi	15	Yangi vaziyat uchun kamida ikki yechimni muhokama qiladi. Guruhda ularni rollarda ijro etadi.	Yechimlarni solishtiradi, navbatga rioya qiladi va sherigini tinglaydi.
Refleksiv	5	O'zi tanlagan yo'lni va uning sababini og'zaki, yozma yoki rasm orqali ifodalaydi.	Qarorning boshqa ishtirokchiga ta'sirini tushuntiradi.

Namunaviy mashg'ulot

"Zumrad va Qimmat" ertagidan sehrgar kampir o'rmonda qolgan Zumradni ovutishi va Zumradning uy yumushlariga ko'maklashishi tasvirlangan lavha tanlanadi [8]. O'qituvchi "Zumrad kampirning yordamini qanday qabul qildi?" va "U o'z

minnatdorligini qaysi ishi bilan bildirdi?" deb so'raydi. Keyin Qimmatning ham qo'rqqani va uyini sog'ingani esga olinadi. O'quvchilar ikki qahramonning qaysi xatti-harakatlari farq qilganini matndan topadi va bu farqning ehtimoliy sabablarini muhokama qiladi. Suhbatda asosiy e'tibor qahramonning aniq harakati, uning sababi va boshqa kishiga ta'siriga qaratiladi.

Rolli o'yin uchun yangi vaziyat beriladi. To'garakdagi bir bola o'rtog'i kitobini uyida unutganini sezadi, guruh esa hikoyani o'qishni boshlamoqchi. Bolalar kitobni birga o'qish, navbat bilan o'qish yoki kutubxonadan qo'shimcha nusxa so'rash yo'llarini ko'rib chiqadi. Ikki yechimni ijro etgach, guruh har birining kitobini unutgan bola va boshqa ishtirokchilar uchun oqibatini solishtiradi. Yakunda har bir o'quvchi tanlagan yo'lini bir sabab bilan izohlaydi. Shu vaziyat orqali o'qituvchi bolaning ertakdagi o'zaro yordam g'oyasini maktab hayotidagi vaziyatga qanday tatbiq etishini kuzatadi.

O'quvchi javobi va xatti-harakatini kuzatish

Pedagogik kuzatuvda kognitiv, emotsional-qadriyatli va faoliyatga oid mezonlar alohida qo'llanadi (2-jadval). Kognitiv mezon qarorning sabab va oqibatini izohlashga, emotsional-qadriyatli mezon boshqa kishining holatini anglashga, faoliyatga oid mezon esa guruh vazifasida ko'rsatilgan amalga taalluqlidir. Bir o'quvchi qahramonning holatini mustaqil tushuntirishi, ammo navbatni kelishishda ko'makka ehtiyoj sezishi mumkin. Mezonlar bo'yicha alohida qayd aynan shu farqni ko'rishga yordam beradi.

2-jadval. Axloqiy tanlovga doir javob va amallarni kuzatish mezonlari

Mezon	**Reproduktiv**	**Izlanishli**	**Kreativ**
Kognitiv	Yo‘naltiruvchi savol yordamida qahramonning harakatini aytadi.	Qaror sababini matndagi voqea bilan bog‘laydi va bitta oqibatini aytadi.	Ikki qarorning oqibatini solishtiradi va yangi vaziyatda o‘z tanlovini asoslaydi.
Emotsional-qadriyatli	Rasm yoki savol yordamida qahramon hissini nomlaydi.	Qahramon hissini voqea bilan bog‘laydi va nega yordam zarurligini izohlaydi.	Ikki kishining holatini izohlaydi va har ikkisiga e’tibor beradigan yo‘l taklif etadi.
Faoliyatga oid	Eslatma bilan rolini bajaradi va navbatga rioya qiladi.	Rolini mustaqil bajaradi va sherigining taklifini tinglaydi.	Guruhga adolatli yechim taklif qiladi va uni ijroda namoyish etadi.

Kuzatuv varag‘iga o‘qituvchi sana, vaziyat, o‘quvchining qisqa javobi yoki amali hamda qanday yordam berilganini yozadi. Masalan, o‘quvchi ko‘mak bilan muqobil qaror topgan bo‘lsa, navbatdagi mashg‘ulotda unga mazmuni yaqin yangi vaziyat mustaqil yechish uchun beriladi. Guruh ishida tengdoshini tinglashga qiynalgan bolaga esa keyingi sahnalashtirishda suhbatdoshining fikrini qayta aytib berish vazifasi topshiriladi. O‘quvchiga muayyan amalni bajarish navbati kelmagan bo‘lsa, o‘sha mezon bo‘yicha “kuzatilmadi” deb yoziladi. Darajalar keyingi pedagogik ko‘makni tanlash uchun qo‘llanadi.

Metodikaning asosiy jihati ertak talqini, axloqiy mulohaza va rolli faoliyatni bir mavzu atrofida bog‘lashidir. Matn qahramonning qarorini muhokama qilish uchun umumiy asos beradi, yangi vaziyat esa bolalarning shu qaror ortidagi sababni boshqa

sharoitda qo'llashini kuzatishga yordam beradi. Og'zaki javobdan tashqari rasm, qisqa yozuv va rolli ijro ham dalil bo'la oladi. Taklif etilgan mezonlarning baholovchilar o'rtasidagi mosligi va metodikaning uzoq muddatli ta'siri alohida empirik tekshiruvni talab qiladi.

XULOSA

"Yosh kitobxon" to'garagi uchun taklif etilgan metodika xalq ertagi bilan ishlashni to'rt bosqichda tashkil etadi. O'quvchi qahramon duch kelgan muammoni aniqlaydi, tanlov sababini tushuntiradi, muqobil qarorlarni rollarda sinab ko'radi va o'z tanlovini asoslaydi. "Zumrad va Qimmat" ertagi bo'yicha ishlanma ushbu tartibning bitta mashg'ulotda qanday qo'llanishini ko'rsatadi. Uch mezonli kuzatuv jadvali o'qituvchiga bolaning mulohazasi, boshqaning holatiga munosabati va guruhdagi amali bo'yicha alohida dalil to'plash hamda keyingi topshiriqni shu dalil asosida tanlash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Turaxodjayeva Z. Y. Sinfdan tashqari ijodiy faoliyat jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilari axloqiy tarbiyasining zamonaviy texnologiyalari [Modern technologies of moral education of primary school pupils in the course of extracurricular creative activities]. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Namangan, 2026.
2. Narvaez D. Does reading moral stories build character? // Educational Psychology Review. – 2002. – Vol. 14, No. 2. – P. 155–171. – DOI 10.1023/A:1014674621501.
3. Gasser L., Dammert Y., Murphy P. K. How do children socially learn from narrative fiction: Getting the lesson, simulating social worlds, or dialogic inquiry? // Educational Psychology Review. – 2022. – Vol. 34, No. 3. – P. 1445–1475. – DOI 10.1007/s10648-022-09667-4.
4. Chinn C. A., Anderson R. C., Waggoner M. A. Patterns of discourse in two kinds of literature discussion // Reading Research Quarterly. – 2001. – Vol. 36, No. 4. – P. 378–411. – DOI 10.1598/RRQ.36.4.3.
5. Durlak J. A., Weissberg R. P., Pachan M. A meta-analysis of after-school programs that seek to promote personal and social skills in children and adolescents // American Journal of Community Psychology. – 2010. – Vol. 45, No. 3–4. – P. 294–309. – DOI 10.1007/s10464-010-9300-6.
6. Kumschick I. R., Beck L., Eid M., Witte G., Klann-Delius G., Heuser I., Steinlein R., Menninghaus W. READING and FEELING: The effects of a literature-based intervention designed to increase emotional competence in second and third graders // Frontiers in Psychology. – 2014. – Vol. 5. – Art. 1448. – DOI 10.3389/fpsyg.2014.01448.

7. Turaxodjaeva Z. Y. Axloqiy tarbiyaning shakllari, turlari va texnologiyalari [Forms, types and technologies of moral education] // Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar. – 2026. – Vol. 3, No. 1. – B. 201–204.
8. Zumrad va Qimmat [Zumrad and Qimmat] // O'zbek xalq ertaklari [Uzbek folk tales]. 3-jild / Tuz. M. Afzalov, X. Rasulov, Z. Husainova. – Toshkent: O'qituvchi, 2013. – B. 56–60.